

Yoshlarga oid davlat siyosati ijrosi ko'rib chiqildi



Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlar bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati manzilli va keng qamrovli. Xususan, o'tgan yili 9 ming 406 ta mahallada yoshlar yetakchilari faoliyati yo'lga qo'yilib, ularning muammolarini joyida hal etish imkoniyati yaratildi. Natijada yoshlar murojaatlarini ko'rib chiqish muddati 30 kundan 5 kunga qisqardi. Ayni paytda yetakchilarning tavsiyasi asosida yigit-qizlarga 25 ta yordam turlari ko'rsatilmoqda.

Yosh avlodning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish va bandligini ta'minlash maqsadida 14-30 yoshdagi 9 million nafar yoshlarning balansi shakllantirildi. Bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, iqtidorini yuzaga chiqarish maqsadida 5 bosqichli "Besh tashabbus olimpiadasi" o'tkazib kelinmoqda.

Yig'ilishda bu boradagi ishlarni davom ettirib, sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish zarurligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari bitiruvchilarni kasb-hunarga o'rgatish va ish bilan ta'minlashga qaratilgan "Hayot maktabi" dasturini amalga oshirish tashabbusini bildirdi.

Yoshlarni e'tibor va g'amxo'rlik bilan to'la qamrab olish maqsadida ular "mahalladan vazirlikkacha" tizimi orqali davlat idoralariga birlashtirilishi belgilandi.

Yoshlarga ajratilayotgan mablag'larning shakllanishi va moliyalashtirish jarayonlarini raqamlashtirib, maqsadli yo'naltirish vazifasi qo'yildi. Yigit-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, biznes ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Yoshlarimiz san'at, adabiyot, sport sohalarida ham intiluvchan. Ularga bunday imkoniyatlarni yaqinlashtirish maqsadida hududlarda "Madaniyat karvoni" tadbirlari, festivallar, intellektual va sport musobaqalari o'tkaziladi. Yoshlar saylgohlari, kreativ parklar tashkil etiladi.

Yoshlarni yot g'oyalar xurujidan ishonchli himoya qilish uchun muqobil axborot resurslari yaratib, boyitib

borish muhimligi aytili.

Yig'ilishda mutasaddilar joriy yilda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan axborot berdi.



Manba